

BUGUNGI KUN O'QUVCHI-YOSHLARINI KASB-HUNARGA YO`NALTIRISHDA MAKTAB VA JAMOANING O`RNI

To'rayeva Nilufar Abdumalikovna
Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani
8-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya:

Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muhtoj bo'lib boraveradi. O'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustuvor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta'lim muassasalarining o'rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirishdagi maktab psixologi, texnologiya o'qituvchisi, umuman maktab jamoasining vazifalari va prezidentimizning bu boradagi farmoni xususida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, kadrlar tayyorlash, farmon, kasbga yo'naltirish, psixolog, 7-sinflar, uzluksiz tizim, hamkorlik.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, Prezidentimizning "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmoniga binoan respublikamizda professional ta'limni yanada takomillashtirish masalasida, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlari joriy qilinganligi, ta'lim muassasalari o'quvchi-yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun sharoitlar yaratish hamda qo'llab-quvvatlash sifatini oshirishni taqazo etdi. Bugungi kunda har bir insonning kasblar olamida o'z-o'zini topishi, kasbiy o'zligini anglashi, jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishi va unga qiziqishlari kun sayin ortmoqda. Minglab kasblar ichida qaysi birini tanlash, unga shaxs moyilligi, layoqati, va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish shaxs istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir. Shu o'rinda

psixologlarimiz ta'kidlaganidek, insonning o'zi xohlagan kasbni erkin tanlashi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Kasbga yo'naltirish-yoshlarni xohish moyilligi va shakllangan qobiliyatlariga yarasha hamda xalq xo'jaligini, umuman jamiyatning mutaxassislarga ehtiyojlarini hisobga olib ishga joylashtirish jarayonini optimallashtirishga qaratilgan psixologik pedagogik, tibbiy tadbirlar kompleksi. O'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish – yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam qaratilgan ijtimoiy- iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish- texniktadbirlarning asoslangan tizimi hisoblanadi Ta'kidlash joizki, Jahon pedagogik hamjamiyati ishlab chiqarish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni o'rta umumta'limni yangilashning muhim omili sifatida tan oldi.

Maktab o'quvchilarida kasb-hunar tanlashga ko'malashishning asosiy maqsadi — umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish, o'quvchilarda kasbiy bilimlarni va motivatsiyani, ijtimoiy hayotdagi kasbiy olamga moslashuv va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarni shakllantirish. Maktab amaliyotchi psixologi, sinf rahbarlari va texnologiya fani o'qituvchisi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga mas'uldir. Jumladan, maktab psixologining vazifasi quyidagilar:

— o'quvchilarni kasblar haqidagi fikrlarini kengaytirish, ularni qobiliyat va imkoniyatlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatish;

— o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ota-onalarni va keng jamoatchilikni jalb qilgan holda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish.

O'quvchilarning kasb-hunarga layoqatini o'rganish uchun ularning aqliy, jismoniy qobiliyatlarini bilish, malaka va ko'nikmalarini o'rganish lozim. Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Kasb tanlash- jiddiy va mas'uliyatli ishdir. Yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining, psixologning mahorati, bilim saviyasi, didaktik qobiliyatlar yuksak bo'lishi, fan asoslarini turmush bilan bog'lab o'rganilishi, to'g'ra va qo'shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to'g'risida ma'ruzalar o'qilishi, suhbatlar, munozaralar o'qilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko'rgazmalari tashkil qilishlari zarur. Mehnat ta'limini turmush bilan bog'lash, uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, texnik qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda yoshlarni kasbga yo'naltirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim bo'ladi:

-o'quvchilarning faolligi, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezgu- niyatlari xususan kasb-korga bo'lgan qiziqishlarini vaqtida aniqlash;

-o'quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo'llash;

-ota onalar bilan mustahkam aloqa o'rnatish;

-kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatlar uyushtirish lozim bo'ladi. **Markazning asosiy vazifalaridan biri** umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasb-hunarga o'rgatish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini muvofiqlashtirib borishdir. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'quvchilarning kasb tanlashida avvalo oilaning o'rnini beqiyos. Farzandining iqtidorini, qiziqishlarini aniqlashda ota-ona eng to'g'ri qarorni qabul qila oladigan shaxslardir. Maktab psixologi esa ularni boshqa taraflardan o'rganib yo'nalish beradi. Bitta shaxsning kelajakdagi kasbini to'g'ri tanlashi jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham bugungi kunda bu masala davlatimizning ham diqqat markazida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2013. 156-b
2. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2015. №5. 90-93-b.
3. Ziyonet.uz

